

BOTIROVA SHAXLO ISAMIDDINOVNA

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI



**Toshkent
2024**

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих выдач _____	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOTIROVA SHAXLO ISAMIDDINOVNA

Tarjima nazariyasi va amaliyoti

(Darslik)

Toshkent
«Renesans sari»
2024

UO'K 81'25
KBK 81-7
B-81

BOTIROVA Sh. I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –
T.: "Renesans sari", 2024. 110 b.

Taqrizchilar:

Feruza Ikramxanova – *filologiya fanlari doktori, professor.*
Dildora Isroilova – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Ushbu darslikda tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida umumiy tushunchalar, tarjima tarixi, tarjima turlari, xususan, yozma va og'zaki turlari, tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar, badiiy tarjima va uning xususiyatlari, ketma ket tarjima, tarjima jarayonida ma'lumotni to'liq qayta tiklash, matnning kengayish holati, tarjima jarayonida xotirani rivojlantirish, sportga oid so'zlar tarjimasi, geografik nomlar va toponimlar tarjimasi, madaniyatga oid so'zlar tarjimasi va uning xususiyatlari va o'zbek tilida qo'llaniladigan qisqartmalar tarjimasi haqidagi nazariy qarashlar hamda ularning amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik va metodik imkoniyatlari o'z aksini topgan. Darslik kredit modul asosida ta'lim oluvchi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi bakalavrlari, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

UO'K 81'25
KBK 81-7

O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9397-3-0

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

1. Tarjima nazariysi va amaliyoti faniga kirish	4
2. Tarjima tarixi	14
3. Fanning predmeti, uslub va metodlari	26
4. Tarjima turlari	38
5. Yozma tarjima turlari.....	44
6. Og'zaki tarjima turlari.....	51
7. Tarjima sohasidagi yondashuvlar	53
8. Tarjima jarayonida leksik muammolar va ularning yechimi	60
9. Tarjima jarayoni.....	64
10. Tarjima jarayonida lug'atlar bilan ishlash	74
11. Badiiy tarjima va uning xususiyatlari	76
12. Ketma ket tarjima va uning xususiyatlari	83
13. Sinxron tarjima qilish prinsiplari	90
14. Tarjimada terminlar ahamiyati	96
15. Sportga oid so'zlar tarjimasi	100
GLOSSARIY	106

1-mavzu: Tarjima nazariyasi va amaliyoti faniga kirish

Reja:

1. Tarjimada ilk nazariy qarashlar
2. Xalqaro tarjimonlar uyushmasining yuzaga kelishi
3. Tarjimada metodlarning qo'llanilishi

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal o'zlashtirgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma'no ifodalarini avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul, degan fikrlarni olg'a surishgan. Undan so'ng Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada Dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima borasida o'z nazariy tushunchalarini olg'a surib borgan.

XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamaları ishlatilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'noga ega bo'lgan. Masalan, taniqli fransuz tilshunosi Jorj Munenning e'tirof etishicha, F. de Sossyur (1857-1918) va O. Garri Yespersen (1860-1943) tadqiqotlarida tarjima nazariyasi haqida fikrlar yo'q, hatto Sh. Balli (1865-1947) va J. Vandriyes (1875-1960) asarlarida ham bu xususida mulohaza bildirilmaydi.

Tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning yigirmanchi yillarida yuzaga kela boshladi. Bu davrda nashr qilingan F. R. Amos, J. P. Postget, O. M. Finkel, M. P. Alekseev kitoblarida, Sanjar Siddiqning "Adabiy tarjima san'ati" (1936 y.) risolasida ham tarjima nazariyasini fan

sifatida e'tirof qiluvchi aniq fikrlar bildirilmagan edi. Tarjima nazariyasini fan sifatida ta'riflovchi va bunga da'vat etuvchi tadqiqotlar asrning elliginchi yillariga kelib e'lon qilina boshlandi. Aniqrog'i, 1952 yil. "Inostranni'e yazi'ki v shkole" jurnalida taniqli tarjimon I. Kashkinning "Ishonchsiz tamoyil va noaniq xulosalar" va taniqli tilshunos A. A. Reformatskiyning "Tarjimaning lingvistik masalalari" nomli maqolalarining chop qilinishi bu sohada bahs-munozaralarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Masalan, professor A. A. Reformatskiy o'z maqolasida "tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan bo'la olmaydi. U tilshunoslikning bir bo'limigina bo'lishi mumkin", degan da'vo bilan chiqadi. Tez orada olimning bu fikriga qarshi tarjimashunos A. V. Fedorov: "Tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof qilinishi zarur. Faqat u qurilishi jihatidan tilshunoslik yo'nalishiga vobasta bo'lmog'i kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Bu yillarda O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi xususida dadil fikrlar aytila boshlandi. Asqad Muxtor, Jumaniyoz Sharipov, G'aybulla Salomov, Ninel Vladimirovalarning tarjima nazariyasidan bahs yurituvchi risola va maqolalari nashr qilindi.

1953 yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi – FIT (Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim rol o'ynadi. 1955 yildan uyushma organi "Babel" ("Bobil") jurnali nashr etila boshlandi. Bu yillarda turli mamlakat olimlarining tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari birin-ketin bosilib chiqdi. Ular orasida fransuz Jorj Munenning "Go'zal, ammo bevafo", ingliz Teodor Savorining "Tarjima san'ati" kitoblari o'sha davrda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, kanadalik tilshunoslar J. P. Vinye va J. Darbelning 1958 yilda nashr qilingan "Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi. Tarjima tadorigida" monografiyasida tarjima nazariyasi qiyosiy tilshunoslik yo'sinida talqin qilinib, mualliflar uni sof tilshunoslik izmidagi

fandir, degan tezisni ilgari surdilar. Ular o'z fikrlarini taniqli tilshunos olim Charl Balli ta'limotiga yaqinlashtirib, tarjima ham ikki tilga mansub sistemadir, u asliyat va tarjima tilining o'zaro yaqinlashuvi jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayonda asliyat tili o'z holatini o'zgartirmaydi, tarjima tili esa mavjud sharoitga qarab o'zgaradi va asliyat tilining lisoniy holatlarini o'zida ifoda etishga majbur bo'ladi, degan to'xtamga keladilar.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida fransuz olimi E. Karining "Tarjima nazariyasi sari" va amerikalik tilshunos Yu. Naydaning "Tarjima nazariyasi xususida" nomli mazmunan bir-birini to'ldiruvchi tadqiqotlari bosilib chiqdi. E. Kari o'z kitobida tarjima nazariyasini mustaqil fan tarzida e'tirof etish bilan birga umumiy "tarjima nazariyasini yaratmoq payti keldi", degan fikrni bildirgan bo'lsa, Yu. Nayda tarjima amaliyoti va nazariyasining vobasta ilmiy tamoyillarini ishlab chiqmoq lozimligini uqtirish bilan, tarjima nazariyasiga "dinamik ekvivalent" (so'zlarning teng ma'noli muqobillari) tushunchasini olib kirdi.

Bu davrga kelib sobiq Ittifoqda ham tilshunos va adabiyotshunos olimlarning tarjima nazariyasi talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlari e'lon qilindi. Masalan, A. V. Fedorov "Tarjima nazariyasiga kirish" kitobini 1958 yil kayta nashr ettirarkan, unga "lingvistik ocherk" tagsarlavhasini ilova qilgan edi. Ko'p o'tmay ushbu nashr mazmuni va mundariyasi atrofida qizg'in bahs-munozaralar boshlandi. Ittifoq olimlari o'rtasida tarjima nazariyasiga ikki tomonlama: tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan talqin qilish muammosi yuzaga keldi. 1959 yildan ittifoq Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan "Tarjima mahorati" almanaxi va 1963 yildan tilshunoslik ilmining markazlaridan biri sanalgan Moskva Davlat chet tillar pedagogika instituti olimlari sa'y-harakati bilan "Tarjimon daftarlari" ilmiy to'plami nashr etila boshlandi. "Tarjima mahorati" almanaxida taniqli adabiyotshunoslarning tarjima - bu adabiy jarayon va badiiy ijod, tarjima nazariyasi esa adabiyotshunoslikka asoslangan fandir, deguvchi maqolalari

muntazam chop qilinib kelingan bo'lsa, "Tarjimon daftarlari" to'plamida ko'plab tilshunoslarning tarjima - bu matn bilan bog'liq lingvistik jarayon, tarjima nazariyasi ham lisoniy tahlilga asoslangan fandir, deya e'tirof etguvchi tadqiqotlari bosilib kelindi.

O'sha yillari O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof etila boshlandi. Prof. A. A. Reformatskiy va A. V. Fedorovning tarjima nazariyasi xususida bildirgan fikrlari yo'nalishida bahs yurituvchi o'zbek olimlari N. V. Vladimirova ("Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык", 1957), J. Sharipov ("Некоторые проблемы поэтического перевода", 1958), G'. Salomov ("Мақол ва идиомалар таржимаси", 1961) larning tadqiqotlari yuzaga keldi. 1961 yil professor G'aybullay Salomov asos solgan "Tarjima san'ati" ilmiy to'plamining birinchi kitobi bosilib chiqdi. Mualliflar o'sha davr talabidan kelib chiqqan holda o'z tadqiqotlarida tarjima nazariyasining ba'zi lingvistik va poetik xususiyatlarini yoritishga harakat qilgandilar.

Biroq, o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab sobiq Ittifoq va xorijiy olimlar davrasida tarjima nazariyasi tilshunoslik tadorigidagi fandir, deguvchilar soni ortib, ular ta'limoti yetakchi o'ringa chiqib oldi. Masalan, 1964 yili rus tilshunoslari I. Revzin va V. Rozensveygning "Umumiy va mashina tarjimasi asoslari" nomli monografiyasi e'lon qilindi. Monografiyada olimlar tarjima nazariyasi tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lishi lozim, deguvchi ta'limotni yanada chuqurlashtirib, tarjimani strukturaviy tilshunoslik qolipida talqin qilmoq va shu tamoyilda tahlil etmoq darkor, degan fikrni targ'ib qilishdi. Hatto ular A. V. Fedorov "Tarjima nazariyasiga kirish" kitobining 1958 yilgi nashri mazmuni va mundarijasiga tanqidiy yondashib, olimning tarjima nazariyasini yaratishda yakdil bir to'xtamga kelolmaganligini, tarjima nazariyasining sof lingvistik fan ekanligini isbotlab berolmaganini tanqid qildilar. Shu bilan birga ular "mashina tarjimasi" ning nazariy